

## BANK-MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Iriskulov Temur Xayrulla o'g'li**

*Toshkent Moiya Instituti*

*Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti talabasi*

Bank-moliya tizimini isloh qilish jarayonida ularning barqarorligini ta'minlash, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy muassasalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish hamda aholining ishonchini oshirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Davlatimiz rahbarining tegishli qaror va farmonlari sohaga taalluqli ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yaratib, mamlakatimizda tarmoq va hududiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutlaqo yangi tizimni shakllantirdi. Xususan, hokimliklar bilan birgalikda hududlarni kompleks va intensiv rivojlantirishda davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'lar jalb etish, shuningdek, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini yangi innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiyalash ishlari amalga oshirilyapti. Innovatsion mexanizm va vositalarning sohada keng qo'llanishi hududlar iqtisodiyotini kompleks rivojlantirishda, mahalliy byudjet mablag'larini oshirishda qo'l kelayapti.

Barchamizga ma'lumki, 2020 yil – "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb e'lon qilindi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.<sup>67</sup>

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirish davlat dasturiga muvofiq mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

<sup>67</sup> [www.review.uz](http://www.review.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi





amalga oshirilishi belgilangan. Ana shu vazifalar sirasiga bank va moliya tizimini isloh qilish hamda mazkur sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish ham kiradi. Batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak, davlat mablag'lari hisobidan imtiyozli bank krediti ajratish amaliyotini tubdan takomillashtirish, banklardagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, bank va mijoz o'rtaсидаги munosabatlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, bank xizmatlari sifatini oshirish maqsadida tijorat banklari faoliyatiga samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI), mijozlarning bank xizmatlaridan mammunlik indeksi (CSI), mijozlarning bank xizmatlarini boshqalarga tavsiya etish indeksi (№PS) kabi ko'rsatkichlarni tatbiq qilish, mahalliy va xalqaro bank plastik kartochkalari bo'yicha hisob-kitoblarda banklar orasida axborot va texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida milliy banklararo protsessing markazini ishga tushirish va boshqa talay ishlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida keyingi ikki yil mobaynida Markaziy bank tomonidan bank nazorati va pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini qayd etish lozim. Jumladan, qayta moliyalash stavkasi ikki marta oshirilib, 2018 yilning 25 sentyabridan e'tiboran 16 foizga yetkazildi. Shuning barobarida 2017 yilning ikkinchi yarmidan boshlab banklarga likvidlik taqdim etish qayta yo'lga qo'yildi. Shaffoflikni oshirish va bozor munosabatlari xos foiz stavkalarini shakllantirish uchun banklararo pul bozorida amaliyotlar o'tkazishga mo'ljallangan yagona platforma yaratildi.

2018 yil avvalida Markaziy bank tarkibiy tuzilishi yangi vazifalardan kelib chiqilgan holda butunlay qaytadan tashkillashtirilgani ham e'tiborga molik. Yangi bo'linmalar tashkil qilindi, masalan, statistika va tadqiqotlar, monetar operatsiyalar, kommunikatsiya va xalqaro aloqalar departamentlari ish boshladi.

Bank tizimini rivojlantirishning yana bir ustuvor yo'nalishlaridan biri sohada davlat banklari ulushini kamaytirishdir. Chunki bank sektorida davlat banklarining ko'pligi soha rivojining sekinlashishi, raqobatning cheklanishi, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi zaiflashishi, yirik banklar faoliyati samaradorligining pasayishi singari talay salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ularni bartaraf etish uchun hukumatimiz va Markaziy bank yaqin istiqbolda bir qancha chora-tadbirlarni hayotga tatbiq qilishni rejalashtiryapti. Ya'ni:

- 1. Imtiyozli kreditlar bozor shart-sharoiti, talab va taklifdan kelib chiqilgan holda ajratiladi;**
- 2. Davlat bank sektorida o'z ulushini bosqichma-bosqich kamaytiradi;**
- 3. O'zbekistonni rivojlantirish banki barpo qilinadi va uning asosiy**



vazifasi mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi;

#### **4. Jahon banki bilan birgalikda moliya sektorini yanada rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi.**

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan "Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"da ochiq bozor operatsiyalaridan foydalanish belgilangan. Bunda Markaziy bank tijorat banklari bilan repo operatsiyalari o'tkazish orqali likvidlilikni tartibga solishni maqsad qilib qo'ygan.<sup>68</sup>

Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanishini hamda iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarida keng ishtirok etishini ta'minlash, tijorat banklarining samaradorligini oshirish va kapitallashish darajasini ko'tarish borasida aniq vazifalar belgilab olindi. Ular qatoridan aholining bank depozitlariga qo'yadigan omonatlari ko'payishini rag'batlantirish, bankdan tashqari aylanmada qolayotgan moliyaviy mablag'lar va oqimlarni bank aylanmasiga jalb etish, tijorat banklarini to'liq xususiylashtirish, bank va lizing xizmatlarining to'laqonli bozorini shakllantirish, xalqaro bank va moliya kapitalini keng ko'lamda jalb etgan holda qo'shma banklar tashkil qilish, naqd va naqdsiz pul muomalasini hamda hisob-kitoblar shaklini unifikatsiyalash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovarlariga xaridorlar talabini rag'batlantiruvchi turli xil iste'mol kreditlarini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilish kabi ko'plab ishlar o'rinni olgani.

Bank tizimidan tashqari, moliyaning barcha sohalarida ham turli islohotlar keng joriy etilayapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-martdagи 170-sonli "Tovar xomashyo birjalari faoliyatiga ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish va elektron tijorat faoliyatini izchil rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror<sup>69</sup>ga muvofiq birja savdolari mexanizmlarini yanada takomillashtirish rejali belgilab olindi.

Birja savdolari mexanizmlarini takomillashtirish va "O'zbekiston Respublikasi Tovar xomashyo birjasи" Aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

1. O'tkaziladigan savdolar shaffofligini ta'minlaydigan, shuningdek, birjaning barcha platformalarida elektron savdolarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlariga aralashish hamda ularning yakunlarini noto'g'ri ko'rsatish imkoniyatlariga yo'l qo'ymaydigan innovatsion IT-texnologiyalarni joriy etish.

2. Narxlarni, talab va taklifni prognozlashtirish maqsadida tovar bozorlarida

<sup>68</sup> [www.21asr.uz](http://www.21asr.uz) Bank-moliya sohasini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

<sup>69</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi



konyunkturani, jumladan, tovar bozorlarida konyunkturaga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi omillarni samarali va har tomonlama tahlil etish ishlarini tashkil etish.

3. Birja savdolarini o'tkazish shakllarini takomillashtirish va yangi savdo vositalarini joriy etish, shuningdek, elektron tijoratni jadal rivojlantirish

4. Xalqaro standartlar talablariga muvofiq zamonaviy va samarali moliyaviy hamda HR-menejment uslublarni joriy etish.

Qarorga ilova sifatida “Birja savdolarida yuqori likvidli va monopol turdag'i mahsulotlarni sotish tartibi to'g'risida”gi Nizom ham tasdiqlandi va mazkur Nizomga asosan birja savdolarida monopolist korxonalar hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ichki bozorda va eksportga bozor tamoyillari asosida yuqori likvidli va monopol turdag'i mahsulotlarni sotish tartibini belgilab berildi. Byudjet mablag'laringin maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirishda birja savdolarini takomillashtirish va yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda raqamli iqtisodiyotning tarmoqlarga keng kirib borishi dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Barcha chora-tadbirlarning tub zamirida, albatta yurtimizning tinch va farovon kelajagi yotadi. Mamlakatimizda bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini beradi va Respublikamiz aholisi turmush darajasi yanada yaxshilanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “Ekonomist” jurnali O'zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – “Yil mamlakati” deb e'tirof etdi. Bunday baho barchamizga cheksiz g'urur, iftixor va kuch bag'ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi.

